



UZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAKSUS  
TALIM VAZIRLIGI



FARG'ONA  
DVLAT  
UNIVERSITETI

# MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMNING DOLZARB MASALALARI:

MUAMMO, YECHIMLAR VA  
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN

## II - QISM

11 - IYUN 2020 YIL



FARG'ONA - 2020

## MUNDARIJA

<b>KIRISH SO‘ZI</b> .....	<b>7</b>
<b>1-SHU‘BA. RAQAMLI DUNYO SHAROITIDA MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI</b> .....	<b>8</b>
<i>Ахбарова З.А., Ерматова О.</i> ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС – ВЫСОКОЕ КАЧЕСТВО СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	8
<i>Хайдарова Шахло Нарзуллаевна.</i> ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ И КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....	10
<i>Умарова Guljahon Umidullayevna.</i> BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA SODDA MASALALARNI YESHILISHNI MULTIMEDIA VOSITALARI YORDAMIDA TUSHUNTIRISH.....	12
<i>Ғофурова С.С., Ғофурова А.Х.</i> ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМДА МУТАХАССИС ФАНЛАРНИ УЎҚИТИШДА УЎҚИТИШ МЕТОДЛАРИНИ ТАХЛИЛИ.....	15
<i>Наркабилова Г., Ғоziлов Ж.</i> ВЛИЯНИЕ КОМПЬЮТЕРОВ НА РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.....	18
<i>Каримова Н.М.</i> ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ПОЭЗИЯ: ВРЕМЯ И ПРОСТРАНСТВО.....	20
<i>Усманова Шахноза Ёкубжоновна.</i> ИГРОВАЯ ТЕХНОЛОГИЯ КАК ПОЗНАВАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС ЦЕЛОСТНОЕ ОБРАЗОВАНИИ.....	22
<i>Хўжамбердиева Дилдора Абдусаломовна, Каримова Сайёра Зокиржоновна.</i> БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ДАРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ.....	25
<i>Абдуқодиоров Мухаммад-Юсуф Рустамбек угли.</i> ВОПРОСЫ ОБУЧЕНИЯ МУЗЫКЕ ДЕТЕЙ В ЦИФРОВОМ МИРЕ.....	27
<i>Агзатова М.С., Намтоқилова Ш.А., Усмонова С.С.</i> BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SIFAT DARAJALARINI O‘RGANISHNING SAMARALI USULLARI HAQIDA.....	29
<i>Сулаймонова Н.</i> ЎҚУВ ЖАРАЁНИ САМАРАДОРЛИГИГА ЭРИШИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ.....	31
<i>То‘ушевйева Н.</i> FANLARARO ALOQA VA INTEGRATSIYANING MAKTABLARDA O‘QITISH VA O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDAGI ANAMIYATI.....	34
<i>Гуламова Н.Г.</i> УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ДАРСНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АҲАМИЯТИ.....	36
<i>Рахмонова G.Sh.</i> МАКТАБГACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA BOLALARNING IJODKORLIGINI RIVOLANTIRISH.....	39
<i>Маматова Зилолаxon Хабибulloxonovna, Qurbonov Pahlavon Sirojiddin o‘g‘li.</i> BOSHLANG‘ICH SINFLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH.....	41
<i>Усмонова М.</i> BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING AQLIY SALONIYATINI RIVOLANTIRUVCHI OMILLAR.....	43
<i>Арипов Ш.О.</i> БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ АҲАМИЯТИ.....	46
<i>Науратова Дилафруз, Иноятуллоевна.</i> MEDIA MASHG‘ULOTLAR ORQALI BOLA NUTQINI RIVOLANTIRISH.....	48
<i>Арипов З.</i> МАКТАБGACHA ТАЪЛИМ ЁШИДА БОЛА ШАХСИГА ҚАРАТИЛГАН ЎҚИТИШ УСУЛЛАРИ.....	50
<i>Раҳмонов Улғубек, Эргашев Алижон.</i> МАКТАБGACHA ТАЪЛИМ –ТАЪЛИМНИНГ БОШ БЎҒИНИ.....	53
<i>Сувонова Нодирабегим Садир қизи</i> МАКТАБGACHA TA‘LIMDA MULTIMEDIALEI TEXNOLOGIYALAR.....	55
<i>Нуралиева Ф., Нуралиева З., Дадажонов А.</i> ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНГА ТАЪЛИМДАГИ ЯНГИЛИКЛАР.....	57

Тадқиқот гуруҳлари	“аъло”	“яхши”	“қовқарли”	“қовқарсиз”
7 А- синф	33%	56%	10%	-
7 Б- синф	40,5%	40,3%	16,5%	2,7%

Тадқиқот натижаларидан шунни кўриш мумкинки, ўқувчилар билан олиб борилган машғулотлар, таълим жараёнига тадбиқ этилган дарсни лойihalаштириб олиб борилганда ўқувчиларнинг мустақил фикрлаш даражасига ва ўзлаштириш кўрсаткичларига ўз таъсирини кўрсатди.

Демак дарсни лойihalаштириб ўтиш ўқувчиларнинг мустақил фикрлашнинг ривожланиши схаке ижодкорлиги, ҳамда тафаккур даражалари билан боғлиқликда эканлиги маълум бўлди. Шунингдек, таълим жараёнида қўлланиладиган турли усуллар ва воситалардан фойдаланиш талабаларда мустақил фикрлашни ривожлантириш омиллари сифатида намоён бўлади.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Илғор педагогик технологиялар тадбиқи Тошкент: Ўқитувчи, 2006 йил
2. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойihalаштириш ва режалаштириш: Ўқув услубий қўлланма/ Инновацион таълим технологияси серияси. – Т.: “Иқтисодиёт” 2012. – 154 бет

### МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАСВИРИЙ FAOLIYAT MASHG’ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA BOLALARNING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH.

**Рахмонова Г.Ш.**

*Buxoro davlat universiteti, maktabgacha ta’lim kafedrasi, o’qituvchi*

#### Аннотация

Bu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tasviriy faoliyatga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantirishva bolalarning taassurotlarini, tafakkurlarini, tasavvurlarini boyitish uchun san’at asarlari bilan tanishtirish.

*Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, tasviriy faoliyat, axloqiy, estetik, intellektual, siluet.*

### РАЗВИТИЕ ДЕТСКОГО ТВОРЧЕСТВА НА ЗАНЯТИЯХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ.

**Рахмонова Г.Ш.**

*Бухарский государственный университет, кафедра дошкольного образования, преподаватель*

#### Аннотация

Эта статья направлена на развитие у детей дошкольного возраста интереса к визуальным действиям, ознакомление их с произведениями искусства, обогащая детские впечатления, мысли и фантазии.

*Ключевые слова: дошкольное образование, изобразительное искусство, этика, эстетика, интеллектуал, силуэт.*

### DEVELOPING CHILDREN’S CREATIVITY IN THE ORGANIZATION OF FINE ACTIVITIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS.

**Rakhmonova G.Sh.**

*Bukhara State University, Department of Preschool Education, Lecturer*

#### Abstract

This article introduces preschoolers to works of art to develop their interest in visual arts and to enrich children’s impressions, thoughts, and imaginations.

*Keywords: Preschool education, visual activity, ethical, aesthetic, intellectual, silhouette.*

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va etuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. " Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 11-moddasi maktabgacha ta'limga bag'ishlanadi. Maktabgacha ta'lim shaxsini sog'lom va yetuk qilib tarbiyalab, maktab ta'limiga tayyorlaydi. Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida olib boriladi. Ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, uning samarasi shunchalik erta namoyon bo'ladi va insonning butun hayot tarziga ijobiy ta'sir qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 dekabrda "2017 — 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 2707 qarorida" Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual va jismoniy rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish" belgilangan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda tasviriy faoliyatning o'rni beqiyosdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etishda bolalarning ijodkorligini oshiradi, bolada atrof-olamga estetik munosabatni shakllantiradi, tasviriy san'at asarlarini idrok etishda va go'zallikni his qilish tuyg'usini tarbiyalashda davom ettiradi. Bolaning taassurotlarini boyitadi, tasavvur, tafakkur va mushohada quvvatini orttiradi, badiiy-ijodiy qobiliyatini o'stirishga alohida ahamiyat beradi. Bola o'zbek xalq xunarmanchiligi haqida va hududdagi kulolchilar ishi bilan tanishadi. Bundan tashqari xalq ustalari yasagan chinni idish (lagan, piyola, ko'za)lar namoyish etiladigan ko'rgazmalarga, xalq amaliy san'ati muzeylariga sayohatga olib borish joiz. Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikasiya mashg'ulotlari juda kata ahamiyatga ega. Applikasiyada bolaning qog'oz qirqish va tasvir hosil qilishga oid ko'nikma va malakalari shakllanadi. Biron-bir narsaning tasvirini qisqa va uzun yo'l-yo'l chiziq bo'yab kesishga; kvadratdan doiralarga, to'g'ri to'rtburchakdan oval shaklini qirqishga; qismlardan tasvir (bayroq), ikki-to'rt uchburchakdan kvadrat hosil qilishga o'rgatish zarur. Bola simmetrik shakldagi narsalarning (guldon, piyola v.b.) siluetini kesishga o'rganadi. Masalan, guldon hosil qilish uchun to'g'ri to'rtburchakni uzunasiga buklab, buklangan tarafga guldon rasmining yarmi qalamda chiziladi va chiziq bo'yab qirqiladi. Gulqog'ozni qat-qat qilib taxlab qirqish yo'li bilan marjonqul, archa o'yinchog'i va boshqalarni hosil qilinadi. Obrazni ifodali tasvirlash uchun applikasiyani uzib olish usullaridan foydalanishga; syujetli kompozitsiya tuzishga o'rganadi. Turli shakllar qirqish, yaproq va gullardan naqshlar tuzishga oid ko'nikmalarini mustahkamlash lozim. Applikasiya ishlarida rasm chizish elementlaridan foydalanish mumkin. Masalan, guldonning gullarni yasashda, guldon, gul va barglarni qog'ozdan qirqish, gulning novdalarini mo'yqalam uchi bilan chizish. Varrak siluetini yasashda ham ba'zi elementlarni mo'yqalam yoki qalam bilan chizish mumkin, masalan: ipini, dumini va boshqalar. Kvilling usuli bilan tanishtirish va narsalar (guldonning gullar, gilam) yasashga qiziqtirish. Qat-qat qilib taxlangan qog'ozdan tasmalar qirqib, uni qalamga o'rab shakl chiqara olishga o'rgatish lozim. Bolani maxsus idishdan elimni siqib chiqarishga, narsalarni ohista va sifatli elimlashga o'rgatishda davom etish kerak. Jamoa bo'lib maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkaziladigan bayramlar uchun turli bezaklar, ota-onalarga va do'stlariga sovg'alar tayyorlash hamda guruh xonalarini jihozlashda bolalarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qurish-yasash mashg'ulotlarini olib borishda bolani inshooting har bir qismini tahlil qilishga, vazifasini belgilashga, ishlarni mustaqil rejalashtirishga o'rgatish kerak. Qurilma-konstruktsiyalar haqida ma'lumot berish va ulardan amaliy jihatdan foydalanish, qurilmalarni yasash yo'llarini tushuntirib borish kerak. Bolani chizma, rasm, surat bo'yicha inshoot qurishga, zaruriy qurilish materiallarini mustaqil tanlashga, maqsad bo'yicha jamoaviy binolarni jihozlashga, do'stona, inoq ishlashga undash lozim. Bolaga tayyor shakllardan : mebel, transport vositalari yasashni, detallarni mahkam elimlashni o'rgatishda davom etish kerak. Bolani yangi detallar, turli shakl va hajmdagi yog'och (uzun-qisqa, to'rtburchak, doira, uchburchak), silindrlar va ularning xususiyatlarini bilan tanishtirib borish lozim. Pazl, mozaika va lego kabi o'yinchoqlar yordamida kamida 16 ta bo'lakdan iborat shakl yig'ishga o'rgatish kerak. Bolaning yog'och konstruktsioning har xil bo'laklaridan foydalanishi va nomlashini; qurilish jarayonida inshooting ba'zi detallarini o'zgartirib, asosiy qismini ajrata olishini, qurish-yasashda o'yin faoliyatini maqsad,

sharoit, loyiha bo'yicha olib borishini rag'batlantirish lozim. Qurish-yasashni, rang, shakl va kattalik bo'yicha mutanosiblikni idrok etish layoqatini takomillashtirib borish lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'l mehnatidan foydalanishda bolada qog'ozdan, qo'shimcha materiallardan konstruksiya ishlarini bajarishga qiziqish uyg'otadi. O'z qo'llari bilan turli o'yinchoqlar, bezaklar tayyorlash, o'yinchoqlarni tuzatish, kitoblarni elimlash, o'zidan kichiklar uchun o'yinchoqlar, xatcho'p, sanoq materiallari va mavzuga mos qo'l ishlari yasash istagini shakllantirish kerak. Mashg'ulotlar va syujetli-rolli o'yinlar uchun yasama o'yinchoqlar (bayroqcha, sumkacha, kitob), ota-onalar, kattalar va kichikintoylar uchun sovg'alar tayyorlash, qog'ozdan turli oddiy konstruksiyalar (origami) yasashga o'rgatish lozim. Bolani materiallarni ehtiyotkorlik bilan maqsadga muvofiq, tejab, oqilona sarflashga, o'z mehnati mahsulini ehtiyot qilishga odatlantirish kerak. Bolada ijodiy qobiliyatni, tasavvurni rivojlantirish, badiiy didni o'stirish, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, yasagan buyumlarini estetik jihatdan his etish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish joiz.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi, 1993.
2. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo, 2006.
3. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni, 2013
4. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU, 2013.
5. Nummatova M.SH. Xasanova SH.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lpon", T.:2010y.
6. Nummatova M.SH. Xasanova SH.T. D.Azimova. Ustahonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa", T.:2010y.

### BOSHLANG'ICH SINFLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARSLARNI TASHKILLASH

Mamatova Zilolaxon Xabibulloxonovna  
*Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi*

Qurbonov Pahlavon Sirojiddin o'g'li  
*Farg'ona davlat universiteti, talaba*

#### Annotatsiya

Bugungi kunda informatikani bilish o'ta muhim ahamiyat kasb etganligi bois fanlarni o'qitish tizimini ham isloh etish, dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini qo'llash ta'limdagi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

*Kalit so'zlar:* axborot-kommunikatsion texnologiyalar, animatsion video, audio yozuv, elektron qo'llanma, animatsiya, interfaol usullar.

### ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО- КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Маматова Зилолахон Хабибulloхонoвнa  
*Фарганский государственный университет,  
преподаватель*

Қурбонов Пахлавон Сирожиддин угли  
*Фарганский государственный университет,  
студент*

#### Аннотация

В статье рассматриваются актуальные вопросы передовых методов с использованием современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий в обучении учащихся начальных классов, поскольку знание информатики является одним из наиболее актуальным вопросом в образовании, что предполагает реформирование системы его преподавания.

*Ключевые слова:* информационные и коммуникационные технологии, анимационное видео, аудиозапись, электронное пособие, анимация, интерактивные методы.